



**HOZIRGI DAVRDA TURKIYA RESPUBLIKASI TASHQI SIYOSATINING
ASOSIY TAMOYILLARI**

Ismoilov Raxmatjon Axmadjonovich

Andijon viloyati Marxamat tumani Xokim yordamchisi

Annotatsiya. *Tezisdan hozirgi bosqichda Turkiya Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari tahlil qilinadi. Hozirgi kunda Turkiya tomonidan olib borilayotgan ko‘p qirrali diplomatiya, proaktiv tashqi siyosat, qo‘shni davlatlar bilan “nol muammo” siyosati, “model davlat” dan “markaziy davlat” ga o‘tish, shuningdek, “yumshoq kuch” (soft power) kabi asosiy tamoyillar yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *ko‘p qirrali diplomatiya, proaktiv tashqi siyosat, “nol muammo” siyosati, “yumshoq kuch”.*

KIRISH

Sovuq urushdan keyingi davrda xalqaro tizimda yuz bergan o‘zgarishlar davlatlarni o‘z tashqi siyosatini qayta ko‘rib chiqishga undadi. Ayniqsa, murakkab geosiyosiy mintaqada joylashgan Turkiya Respublikasi ham global va mintaqaviy jarayonlardagi o‘z o‘rnini qayta baholash hamda tashqi siyosatini yangi sharoitlarga moslashtirish zaruratini sezmoqda. Sovuq urush davrida G‘arb davlatlari va AQSh uchun muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan Turkiya, mazkur davrning yakunlanishi bilan ushbu davlatlar oldidagi geostrategik ahamiyatining ma‘lum darajada pasayganligini xis qila boshladi. Natijada, Kipr masalasi, suv resurslari bilan bog‘liq muammolar hamda terrorizmga qarshi kurash kabi yo‘nalishlarda Turkiya o‘zini nisbatan yakka langanligini ko‘rdi. [1] Sovuq urushdan keyingi davrda Turkiya G‘arb va AQSh uchun o‘zining strategik ahamiyatini qayta tasdiqlash maqsadida yangi siyosiy va iqtisodiy asoslarni izlashga kirishdi hamda mintaqaviy hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirishga intilmoqda. Ushbu jarayonlar Turkiya tashqi siyosatida sezilarli tarkibiy o‘zgarishlarning yuzaga kelishiga olib keldi. Shu bois, Turkiya Respublikasi tashqi siyosatida belgilangan asosiy tamoyilloarni tahlil etish mamlakatning hozirgi davrdagi tashqi siyosiy faoliyatini chuqur o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

So‘nggi davrlarda Turkiya tashqi siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida ko‘p qirrali diplomatiya alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu yondashuv Turkiyaning tashqi siyosiy faoliyatini faqat bir markazga yo‘naltirilgan modeldan chiqarib, turli mintaqalar va xalqaro institutlar bilan parallel hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda [2]. Bunday sharoitda Sovuq urush davrining ikki blokli tizimiga hamda asosan G‘arb (kapitalistik) blokiga yo‘naltirilgan tashqi siyosat modeliga moslashgan Turkiya uzoq vaqt davomida mintaqaviy transformatsiyalarni yetarli darajada chuqur tahlil qila olmadi. Natijada, uning qo‘shni



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



mintaqalardagi siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlarga nisbatan institutsional va strategik reaksiyasi cheklangan bo‘lib qoldi [3].

Biroq, 1990-yillarning oxiri va ayniqsa 2000-yillardan boshlab bir qutbli tizimning barqarorligi shubha ostiga olinishi bilan birga, Turkiya tashqi siyosatida sezilarli o‘zgarishlar yuz bera boshladi [4]. Bu davrda mamlakat mintaqaviy jarayonlarga nisbatan faolroq pozitsiya egallashga va yangi diplomatik tarmoqlarni shakllantirishga kirishdi. Ayniqsa, Ahmet Davuto‘g‘lining “strategik chuqurlik” konsepsiyasi Turkiyaning tashqi siyosiy vizyonini qayta shakllantirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qildi [5].

Turkiyaning ko‘p qirrali tashqi siyosatdan ko‘zlagan asosiy maqsadi mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va harbiy jihatdan bir yoki bir nechta davlatlarga haddan tashqari bog‘liqligini kamaytirishdan iboratdir. Boshqacha aytganda, Turkiya global aktorlar bilan o‘rnatgan munosabatlarini diversifikatsiya qilish va ularni strategik jihatdan boyitishga intilmoqda [6].

Yangi davr turk tashqi siyosatidagi muxim tamoyillardan biri “proaktiv tashqi siyosat” tamoyili hisoblanadi. Mamlakatda 2000-yilgacha olib borilgan tashqi siyosat asosan status-kvoni qo‘llab-quvvatlovchi xarakterga ega bo‘lgan. Ayrim tahlilchilar ikki qutbli jahon tizimi davrida va undan keyingi bosqichda Turkiyaning mavjud holatni izchil saqlab qolishga qaratilgan strategiyasi o‘sha davr sharoitida eng maqbul pozitsiya bo‘lganini qayd etadilar [7]. Biroq mazkur yondashuv keyinchalik turk tashqi siyosatining ma’lum darajada sustlashuviga hamda yuz berayotgan va rivojlanayotgan voqealarni ortdan kuzatishiga sabab bo‘lgan.

Turk tashqi siyosati uchun nisbatan yangi bo‘lgan ushbu tamoyilga ko‘ra, dunyoning istalgan hududida muammo yoki muammo yuzaga kelish ehtimoli mavjud bo‘lsa, Turkiya o‘sha yerda faol ishtirok etishi, nizoga daxldor tomonlarni imkon qadar qisqa muddatda umumiy nuqtaga keltirishga intilishi hamda o‘z pozitsiyasini aniq va izchil tarzda ifoda etishi zarur. Shu jihatdan, “proaktiv” siyosat “aktiv” siyosatdan mazmun-mohiyati va yondashuvi nuqtayi nazaridan farqlanishi bilan ajralib turadi. Mintaqaviy va global kuchga aylanish da’vosini ilgari surayotgan Turkiyaning proaktiv diplomatiya yondashuvi, ayniqsa o‘ziga yaqin hududlarda, xususan Yaqin Sharq siyosatida yanada yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, “ritmik diplomatiya” hamda “vositachilik” siyosatlari proaktiv diplomatiyaning muhim ko‘rinishlaridan hisoblanadi.

Qo‘shni davlatlar bilan “nol muammo” tamoyili Turkiya tashqi siyosatiga yo‘nalish beruvchi asosiy tamoyillardan biridir. 2000-yillarga qadar Turkiya deyarli barcha qo‘shni davlatlar bilan ko‘plab va uzoq davom etgan muammolarga ega edi. Xususan, Gretsiya bilan Kipr masalasi hamda kontinental shel’f (qit’a shelfi) bo‘yicha kelishmovchiliklar, Suriya bilan chegara (Hatay) va suv resurslari yuzasidan tortishuvlar, Bolgariya bilan qardosh aholi (soydaşlar)ga nisbatan munosabatlar bilan bog‘liq muammolar, Armaniston bilan 1915-yil voqealari atrofidagi bahslar, Eron bilan siyosiy tuzumga oid kelishmovchiliklar, Iroq bilan esa PKK lagerlari masalasi kabi uzoq muddatli keskinliklar mavjud edi.[8] Shu sharoitda Turkiyaning qo‘shnilar bilan muammosiz va tinch-totuv yashash g‘oyasi mamlakatni yangi





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



va muqobil tashqi siyosiy strategiya izlashga undadi. Natijada, chegaradosh davlatlar bilan munosabatlarni yaxshilash hamda mavjud muammolarni hal etishga qaratilgan tashabbuslar Turkiya tashqi siyosatining eng muhim va ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Xalqaro munosabatlardagi adabiyotlarda Turkiya uchun turli davrlarda “model davlat” va “ko'prik davlat” kabi ta'riflar qo'llanilgan. Turkiya mintaqada Eronni muvozanatlash uchun dunyoviy davlat modeli shaklida boshqa mintaqada davlatlari uchun “model davlat” sifatida ilgari surilgan [9]. Turkiya odatda o'ziga nisbatan berilgan ushbu rollarni ma'lum darajada qabul qilgan va ulardan qoniqish bildirgan. Biroq, amalda bu rollar ko'pincha xalqaro maydonda ta'sirga ega bo'lgan G'arb davlatlari tomonidan Turkiyaga “belgilab berilgan” pozitsiyalar sifatida namoyon bo'lgan. Bu yondashuv dastlab ijobiy ko'rinsa-da, aslida Turkiyaga chegaralari aniq belgilangan, nisbatan passiv rol yuklanganini anglatadi. Turkiya esa o'zining strategik manfaatlariga mos rollarni mustaqil tanlab, faol siyosat yuritishi lozim; aks holda unga tashqaridan belgilangan rollarni bajarish holati davom etishi muqarrar bo'ladi.

Zero, global kuchlar Eron bilan mintaqaviy raqobat doirasida Turkiyani eng kuchli nomzod va “mo'tadil islom” modeli sifatida qo'llab-quvvatlagan bo'lsalar-da, Eronning mintaqadagi ta'siri ba'zan Turkiyaning “markaz davlat” haqidagi da'volariga soya solishi mumkin.

Ahmet Davutoğlu tasnifiga ko'ra, Turkiya “markaz davlat” tushunchasiga eng mos misollardan biridir. Bu doirada Turkiya Osiyo, Yevropa va Afrika kabi turli geosiyosiy hududlarning kesishgan nuqtasida joylashgani sababli kuchli geografik va tarixiy davomiylikka ega markaziy davlat sifatida baholanadi. Geografik davomiylik turli mintaqalar bilan ko'p yo'nalishli aloqalar orqali, tarixiy davomiylik esa atrofdagi ko'plab xalqlar va jamiyatlar bilan shakllangan madaniy va tarixiy bog'liqliklar orqali izohlanadi. Ushbu omillar markaz davlat bo'lishning asosiy shartlaridan biri sifatida qaraladi.

Shu asosda, Turkiyaning “markaz davlat” bo'lish da'vosi mintaqaviy kuchlar muvozanatini yagona o'zi belgilovchi omil sifatida baholanmasligi kerak. Tarixiy tajribalar ham buni tasdiqlaydi. Xususan, 1990-yillarda Turkiya Markaziy Osiyo davlatlari uchun “model davlat” sifatida ilgari surilgan bo'lsa-da, kutilgan natijaga to'liq erisha olmaganligi bunga misoldir. O'sha davrda Rossiyaning mintaqadagi ta'siri yetarlicha hisobga olinmagani, hamda Turkiyaning iqtisodiy salohiyati bilan siyosiy-madaniy nutqi o'rtasidagi nomutanosiblik uning tashqi siyosiy tashabbuslari samaradorligini cheklagan.

Turkiya “yumshoq kuch” (soft power) tamoyilini xam amalga oshirishga intiladi.

O'z tashqi siyosiy strategiyasi orqali mintaqada “joziba markazi” bo'lishni maqsad qilgan Turkiya, ayniqsa Yaqin Sharq, Bolqon va turkiy davlatlar bilan munosabatlarida umumiy sivilizatsiya, tarix va madaniyatga doimiy urg'u berib kelgan [10]. Ushbu siyosatning amalga oshirilishi faqat nutq va diskurs darajasida emas, balki institutsional tuzilmalarda ham o'z ifodasini topgan. Jumladan, Tashqi ishlar vazirligiga qarashli xalqaro texnik yordam tashkiloti bo'lgan Turk Hamkorlik va Taraqqiyot Agentligi (TIKA)ning budjet va operatsion imkoniyatlari kengaytirilib, faol institutga aylantirilgan; TRTning xalqaro kanallari ko'paytirilgan; madaniy faoliyat yurituvchi Yunus Emre institutlari tashkil etilgan; diplomatik aloqalarni kengaytirishga xizmat qiluvchi Jamoat diplomatiyasi koordinatsiyasi





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



(2010) yo'lga qo'yilgan; turkiy diasporalar va qarindosh jamoalar bilan aloqalarni rivojlantirish maqsadida Yurt tashqarisidagi turklar va qarindosh jamoalar boshqarmasi (2010) tashkil etilgan; talabalar almashinuv dasturlari va chet ellik talabalarga beriladigan stipendiyalar kengaytirilgan; shuningdek, Turkish Airlines tomonidan ko'plab markazlarga to'g'ridan-to'g'ri reyslar yo'lga qo'yilgan.

Ushbu tashabbuslarning barchasi orqali Turkiya qarama-qarshi tomonning dunyoqarashlariga ta'sir o'tkazish, ular orasida Turkiya haqida ijobiy tasavvurlarni shakllantirish hamda mamlakatni jozibador markaz sifatida namoyon etishni ko'zlagan. Shu bilan birga, yumshoq kuchni amalga oshirishga qaratilgan ushbu siyosatlarning qisqa muddatda natija berishi kutilmaydi, chunki xalqaro amaliyotda yumshoq kuch asosan uzoq muddatda samaradorlik kasb etadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Turkiyaning Sovuq urushdan keyingi dastlabki davrda past faolligi uning tashqi siyosatidagi konseptual va institutsional cheklovlar bilan bog'liq bo'lgan. Status-kvo va vesternizatsiya tamoyillariga ortiqcha tayanish mamlakatning yangi imkoniyatlardan to'liq foydalanishiga to'sqinlik qilgan.

Biroq, 2000-yillardan boshlab Davuto'g'li konsepsiyasi asosida amalga oshirilgan transformatsiya Turkiyaning tashqi siyosatini tubdan o'zgartirdi. Ko'p o'lchovli, muvozanatli va proaktiv tashqi siyosat modeli mamlakatning xalqaro tizimdagi rolini kuchaytirdi.

Shu bilan birga, zamonaviy geosiyosiy muhitning murakkabligi Turkiyadan yanada moslashuvchan va realistik strategiyalarni talab etmoqda. Kelgusida Turkiya tashqi siyosatining samaradorligi uning global va mintaqaviy o'zgarishlarga qanchalik tez va oqilona moslasha olishiga bog'liq bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Baskın Oran (ed.), Türk Dış Politikası İstanbul: İletişim Yayınları, 2001
2. Özdal, H., Dinçer, O. B., Yeğın, M. 2009. Mülakatlarla Türk dış politikası. Ankara: USAK Yayınları.
3. Ahmet Davutoğlu, Stratejik Derinlik Küre Yayınları, 2001.
4. Hakan Fidan, güvenlik ve dış politika analizleri, 2019.
5. İhsan Dağı, "Transformation of Turkish Foreign Policy," 2006.
6. Schleifer, Y. 2010. Ahmet Davutoglu: A thinker in the halls of power
7. Stephen Kinzer, Turkey: A Nation Between East and West, 2017.
8. Henri Barkey, "Turkey's Regional Power," 2015.
9. Meliha Benli Altunışık & Özlem Tür, Turkey: Challenges of Continuity and Change, 2005
10. Bülent Aras, "Turkey and the Middle East," 2018.